

Mart 2026

Hurmatli o'quvchilar, oilalar, o'qituvchilar, rahbarlar va hamjamiyat a'zolari,

Nyu-York davlat maktablari (NYCPS) tizimi rahbari, yigirma yildan ortiq tajribaga ega o'qituvchi va NYCPS bilan aloqador ota-ona sifatida o'quvchilarimizni xavfsiz va akademik jihatdan kuchli maktablarga munosib deb hisoblayman. Bugungi kunda bu sun'iy intellektdan (AI) mas'uliyat bilan foydalanishni o'rganishni ham anglatadi.

Erta rivojlanish bosqichi, boshlang'ich sinf va o'rta maktab o'quvchilarimiz uchun bu tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishni anglatadi. Yuqori sinf o'quvchilarimiz uchun bu AI karyera va butun sanoatni shakllantirayotgan dunyoga tayyorgarlik ko'rishni anglatadi. Barcha yosh davrlarida bu AI xavfsiz ishlatilishini ta'minlash, o'quvchilar bilim olishini yaxshilash va o'qituvchilarni almashtirishni emas, balki ularni dastaklash uchun o'quvchilar, o'qituvchilar, rahbarlar va oilalar bilan hamkorlik qilishni anglatadi. AI shu yerda va bizning vazifamiz tizim bo'ylab kuchli himoya choralarini ko'rish, undan shaffof, mas'uliyat bilan va yoshga mos tarzda foydalanishdir.

Bu ishni oldinga siljitish uchun biz maktablarimizda AI qanday ishlatilishi mumkinligi haqida dastlabki ko'rsatmalarni e'lon qildik. Bu qo'llanma o'quvchilarimizni himoya qilish, o'qituvchilarni dastaklash va oilalarni xabardor qilish uchun aniq talablarni belgilashga qaratilgan.

Bu ishni davom ettirar ekanmiz, fikr-mulohazangizni ulashish muhimdir. Joriy bahor mavsumida siz kabi hamjamiyat ovozlari bilan shakllantirilgan yanada keng qamrovli AI Playbook yordamida ushbu qo'llanmaga murojaat qilamiz.

Dastlabki ko'rsatmalar bilan tanishib, qisqa fikr-mulohaza so'rovnomasini to'ldirish uchun [schools.nyc.gov/AI](https://schools.nyc.gov/AI) sahifasiga kiring. So'rovnoma 2026-yil 8-maygacha 45 kalendar kuni davomida ochiq bo'ladi.

AI barchamiz uchun yangi savollarni hosil qilishidan xabarim bor. Oldinga siljiganimiz sari tinglashda, mulohaza yuritishda va chuqur o'ylangan tuzatishlar kiritishda davom etamiz, shu bilan birga o'quvchilar xavfsizligi va ta'limini doimo diqqat markazida saqlaymiz.

Fikr-mulohaza so'rovnomasiga kirish bo'yicha savollaringiz bo'lsa, [schools.nyc.gov/AI](https://schools.nyc.gov/AI) sahifasidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqing. O'quvchilarimiz xavfsizligini ta'minlash, ular ta'lim olishi va rivojlanishiga yordam berish maqsadida biz bilan hamkorlik qilganingiz uchun tashakkur.

Hamkorlik umidi ila,



Kamar H. Samuels,  
Maktablar tizimi rahbari